# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TOSHKENT VILOYATI HOKIMINING QARORI

2022 - yil 9 - sentabr 498-10-0-Q/22 Toshkent viloyati hokimiligi

## O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22-avgustdagi 357-sonli qarori to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22-avgustdagi “2022-2023-yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-357-sonli qaroriga muvofiq, shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasini yangi bosqichga olib chiqish bo‘yicha ustuvor vazifalarni amalga oshirish hamda O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 25-moddalariga asosan **qaror qilaman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22-avgustdagi 357-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasini 2022-2023-yillarda yanada rivojlantirishning asosiy vazifalari etib belgilansin:

a) 2022-yil yakuniga qadar:

aholi yashash maskanlarini keng polosali mobil aloqa tarmog‘i bilan qamrab olish darajasini **98 foizga**, xalqaro ahamiyatga ega avtomobil yo‘llari bo‘ylab yuqori tezlikdagi mobil internet qamrovini oshirish;

optik tolali aloqa liniyalarini qurish hamda qo‘shimcha xonadonni yuqori tezlikdagi internetga ulash imkoniyatini yaratish orqali optik tolali aloqa qamrovini oshirish;

elektron davlat xizmatlari ko‘rsatilishiga xususiy sektorni jalb qilish orqali foydalanuvchilar sonini oshirish;

hududlarda yoshlarning zarur ko‘nikmalarga ega bo‘lishiga va ularni kafolatlangan buyurtmalar bilan ta’minlashga xizmat qiladigan markazlarni yaratish

orqali IT-xizmatlar eksporti hajmini oshirish choralari ko‘rilsin.

2. Raqamli texnologiyalarni rivojlantirish doirasida Toshkent viloyatini raqamli transformatsiya qilish bo‘yicha ustuvor loyihalar ro‘yxati 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3.Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 20-, $24^{1}$-, 30- va 69-moddalariga asosan:

**ikki oy muddatda**, keyinchalik har chorak yakunida mobil aloqa operatorlarining takliflariga muvofiq antenna-machtalarni o‘rnatish uchun maqsadli zarur yer uchastkalari (manzili, koordinatalari va maydoni) ro‘yxati shakllantirilishi;

ro‘yxatga kiritilgan, qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan bo‘sh yer uchastkalarini o‘ziga doimiy foydalanish huquqi bilan ajratish uchun ushbu ro‘yxatni viloyat hokimligiga taqdim etilishi;

antenna-machtalarni o‘rnatish uchun o‘ziga doimiy foydalanish huquqi bilan ajratilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalarini ochiq tanlov asosida mobil aloqa operatorlariga ijaraga berilishi, bunda ayni bir yer uchastkasi yoki antenna-machtalardan birgalikda foydalanish bo‘yicha tajribani ommalashtirishga alohida ustuvorlik berilishi;

ro‘yxatga kiritilgan, qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar toifasiga kirgan yoki boshqa yer egalari, foydalanuvchilari, ijarachilariga ajratilgan yer uchastkalarida antenna-machtalarni o‘rnatish va ulardan foydalanish uchun tuman (shahar) hokimliklari yoki yer egalari, foydalanuvchilari, ijarachilari hamda aloqa operatorlari o‘rtasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-apreldagi PQ-204-sonli qarorida belgilangan tartibda o‘zganing yer uchastkasidan cheklangan tarzda foydalanish huquqi (servitut) belgilanishi ijro uchun qabul qilinsin.

4. Belgilansinki, 2022-yil 1-oktabrdan boshlab operator va provayderlarga telekommunikatsiya obyektlarida texnik vositalarni o‘rnatish uchun loyiha-smeta hujjatlari ekspertizaga topshirilgan sanadan boshlab qurilish-montaj ishlarini amalga oshirishga ruxsat beriladi, bunda loyiha-smeta hujjatlari **15 kunlik muddatda** ekspertizadan o‘tkaziladi.

Viloyat favqulodda vaziyatlar boshqarmasi hamda viloyat sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi boshqarmasi mobil aloqa tarmoqlari radioelektron vositalaridan foydalanishni boshlash uchun yong‘in nazorati xizmati xulosasi hamda sanitariya pasporti Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (keyingi o‘rinlarda — Yagona portal) orqali **ikki haftadan oshmagan muddatda**

rasmiylashtirilishini ta’minlasin.

5. **2022 -yil 1-sentabrdan** boshlab Toshkent viloyatining shahar va tumanlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash orqali masofaviy xizmatlarni eksport qilish markazlari bosqichma-bosqich tashkil etilsin va quyidagilar ularning asosiy vazifalari etib belgilansin:

autsorsing xizmatlarini ko‘rsatishga o‘qitish orqali dasturiy mahsulotlar va IT-xizmatlarni eksport qilishga qiziqishni oshirish;

viloyatda faoliyat yuritayotgan autsorsing xizmatlarini ko‘rsatuvchi tashkilotlar uchun mutaxassislar tayyorlash;

autsorsing xizmatlarini ko‘rsatish ko‘nikmalariga ega bo‘lganlar hamda masofaviy xizmatlar eksporti markazlarida tashkil etiladigan o‘quv kurslari bitiruvchilari uchun buyurtmalar topishda ko‘maklashish;

masofaviy xizmatlar eksporti markazlariga muntazam ravishda chet el bozorlaridan buyurtmalarni jalb qilish va yoshlarni ish bilan ta’minlash choralarini ko‘rish;

shahar va tuman hokimliklari, viloyat axborot texnologiya va kommunikatsiyalarni rivojlantirish boshqarmasi (X.Yo‘ldoshev) bilan birgalikda masofaviy xizmatlar eksporti markazlarini Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki (keyingi o‘rinlarda — IT-Park) talablariga mos ta’mirlangan va uzluksiz elektr energiyasi bilan ta’minlangan zamonaviy binolarga joylashtirsin.

Yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmasi (M.Mirsultonov) masofaviy xizmatlar eksporti markazlarini zamonaviy kompyuter jihozlari bilan ta’minlasin.

6. 2023-yildan boshlab har yili yoshlarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi startap loyihalarini yanada qo‘llab-quvvatlash maqsadida Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish jamg‘armasi hisobidan umumiy mukofot jamg‘armasi 1 million AQSh dollari bo‘lgan Prezident sovrini uchun tanlovni o‘tkazish to‘g‘risidagi taklifiga rozilik berilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

7. Viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari (M.Fayziev), Viloyat axborot texnologiya va kommunikatsiyalarni rivojlantirish boshqarmasi (X.Yo‘ldashev), Toshkent viloyati hokimligi huzuridagi “Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish markazi” MChJ (A.Temirpulatov) shahar va tuman hokimliklari bilan birganlikda **har oy hisobot oyidan keyingi oyning 5-sanasiga qadar** ushbu qaror

bilan tasdiqlangan «yo‘l xaritalari», loyihalar hamda idoraviy raqamli transformatsiya dasturlarida nazarda tutilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi to‘g‘risidagi hisobotni **«NIS.UZ» idoralararo avtomatlashtirilgan axborot tizimiga** kiritadi;

Bunda davlat organlari va tashkilotlari **har oyda hisobot oyidan keyingi oyning 5-sanasiga qadar** loyihalarning ijro holati va ular doirasida o‘zlashtirilgan mablag‘lar to‘g‘risida ma’lumotlarni ularni tasdiqlovchi birlamchi hujjatlarni ilova qilgan holda **«NIS.UZ» idoralararo avtomatlashtirilgan axborot tizimida** aks ettirib borilishini ta’minlasinlar.

8. Viloyat axborot texnologiya va kommunikatsiyalarni rivojlantirish boshqarmasi (X.Yo‘ldashev)ga quyidagi vakolatlar berilsin:

raqamli iqtisodiyot va elektron hukumat sohasini tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlarida, shu jumladan mavjud axborot tizimlari va dasturiy-apparat komplekslaridan foydalanish (yoki samarasiz qo‘llash) borasida aniqlangan qonun buzilishlari, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish haqida viloyatda faoliyat olib borayotgan davlat organlari va boshqarma tashkilotlari rahbarlariga ko‘rib chiqilishi majburiy bo‘lgan taqdimnomalar kiritish;

boshqarma va tashkilotlarning raqamlashtirish bo‘yicha o‘rinbosari (Chief Digital Officer) axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida loyihalarni amalga oshirish borasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish hamda ularning ishini har chorakda aniq natijalarga qarab baholab borish.

9. Raqamli texnologiyalarni rivojlantirish doirasida Toshkent viloyatini raqamli transformatsiya qilish bo‘yicha loyihalarni amalga oshirilishini sifatli va o‘z vaqtida bajarilishini muvofiqlashtirish va monitoring qilish bo‘yicha viloyat ishchi guruh tarkibi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

10. Mazkur qarorning sifatli va o‘z vaqtida bajarilishini muvofiqlashtirish va monitoring qilishning quyidagi tartibi o‘rnatilsin:

viloyat axborot texnologiya va kommunikatsiyalarni rivojlantirish boshqarmasi (X.Yo‘ldashev):

mas’ul boshqarma va tashkilotlar faoliyatida raqamli texnologiyalarni joriy etish holatini baholaydi hamda muntazam ravishda raqamlashtirish bo‘yicha rahbar o‘rinbosarlarining hisobotlarini eshitishni tashkil etadi;

**har oy hisobot oyidan keyingi oyning 15-sanasiga qadar** ushbu qaror bilan tasdiqlangan «yo‘l xaritalari», dasturlar hamda idoraviy raqamli transformatsiya dasturlari ijrosi to‘g‘risida umumlashgan tahliliy ma’lumotlarni viloyat hokimligiga

kiritadi.

11. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish viloyat hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari M.Fayziev zimmasiga yuklansin.

**Toshkent viloyati hokimi v.b.** **Z.Mirzayev**

Toshkent viloyat hokimining
2022 yil 9 sentabrdagi
498-10-0-Q/22-son qaroriga
1-ilova

# Raqamli texnologiyalarni rivojlantirish doirasida

# Toshkent viloyatini raqamli transformatsiya qilish bo‘yicha ustuvor loyihalar

# RO‘YXATI

| T/r | Chora-tadbir nomi | Amalga oshirish mexanizmi | Muddati | Moliyalashtirish manbai | Mas’ul ijrochilar |
|---|---|---|---|---|---|
| **Jami chora-tadbirlar soni: 13** | | | | | |
| **I. Raqamli ta’limni rivojlantirish** | | | | | |
| **1.1. «Mahalla» tizimini joriy etish** | | | | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 1. | MFYda «Ijtimoiy mahalla» axborot tizimini samarali joriy etish uchun bilim va ko‘nikmalarni oshirish. | MFYlarining 1020 nafar foydalanuvchilarini shartnoma asosida bilim va ko‘nikmalarini oshirib borish.<br>Jumladan:<br>Nurafshon shahrida — 22 nafar;<br>Angren tumanida — 46 nafar;<br>Bekobod shahrida — 35 nafar;<br>Olmaliq shahrida — 51 nafar;<br>Ohangaron shahrida — 21 nafar;<br>Chirchiq shahrida — 44 nafar;<br>Yangiyo‘l shahrida — 22nafar;<br>Bekobod tumanida — 51nafar;<br>Bo‘ka tumanida — 44nafar;<br>Bo‘stonliq tumanida — 59 nafar;<br>Zangiota tumanida — 73nafar;<br>Oqqo‘rg‘on tumanida — 29nafar;<br>Ohangaron tumanida — 34 nafar;<br>Parkent tumanida — 62nafar;<br>Piskent tumanida — 29 nafar;<br>Toshkent tumanida — 68 nafar;<br>Qibray tumanida — 67nafar<br>Quyi Chirchiq tumanida — 37nafar<br>O‘rta Chirchiq tumanida —<br>57 nafar<br>Chinoz tumanida — 55 nafar<br>Yuqori Chirchiq tumanida — 50nafar<br>Yangiyo‘l tumanida — 64 nafar MFYlarida tizimdan foydalanish bo‘yicha o‘qitish. | 2023-yil dekabr | Mahalliy budjet va ijrochi mablag‘lari hisobidan | Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash boshqarmasi,<br>Toshkent viloyati hokimligi,<br>IT-Park Toshkent viloyati filiali |
| **1.2. «Elektron poliklinika», «Yagona elektron tibbiy karta», «Elektron shifoxona» axborot tizimlarini joriy qilish** | | | | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 2. | Bemorlarning sog‘lig‘i va ularni barcha tibbiyot muassasalarida davolash uchun umumiy ma’lumotlarni shakllantirish va saqlashga mo‘ljallangan «Yagona elektron tibbiy karta» axborot tizimini joriy etish. | 1. Tizimni viloyat hududidagi sog‘liqni saqlash muassasalarida joriy etish bo‘yicha reja-jadval ishlab chiqish.<br>2. Grafikka asosan tizimni bosqichma-bosqich joriy etish hamda sog‘liqni saqlash muassasalarini kerakli jihozlar bilan ta’minlash.<br>3. «Yagona elektron tibbiy karta» axborot tizimi»ni ishga tushirish. | 2022-yil sentyabr jadvalga asosan 2023-yil mart | Mahalliy budjet va ijrochi mablag‘lari hisobidan | Sog‘liqni saqlash boshqarmasi, Toshkent viloyat hokimligi, Moliya boshqarmasi |
| 3. | «Elektron poliklinika» namunaviy axborot tizimini viloyat hududida joriy etish. | 1. Tizimni viloyat hududidagi sog‘liqni saqlash muassasalarida joriy etish bo‘yicha reja-jadval ishlab chiqish.<br>2. Jadvalga asosan tizimni bosqichma-bosqich joriy etish hamda sog‘liqni saqlash muassasalarini kerakli jihozlar bilan ta’minlash.<br>3. «Elektron poliklinika» axborot tizimini ishga tushirish. | 2022-yil sentyabr jadvalga asosan 2022-yil dekabr | Mahalliy budjet va ijrochi mablag‘lari hisobidan | Sog‘liqni saqlash boshqarmasi, Toshkent viloyat hokimligi, Moliya boshqarmasi |
| 4. | «Elektron shifoxona» namunaviy axborot tizimini ishga tushirish. | 1. Tizimni viloyat hududidagi shahar va tuman tibbiyot birlashmalari, barcha markaziy ko‘p tarmoqli poliklinikalar, hamda viloyat davolash profilaktika sog‘liqni saqlash muassasalarida joriy etish bo‘yicha reja-jadval ishlab chiqish.<br>2. Jadvalga asosan tizimni bosqichma-bosqich joriy etish. | 202- yil sentyabr 2022-yil dekabr | Mahalliy budjet va ijrochi mablag‘lari hisobidan | Sog‘liqni saqlash boshqarmasi, Toshkent viloyat hokimligi, Moliya boshqarmasi |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 5. | Tizimlarni samarali joriy etish uchun sog‘liqni saqlash muassasalari xodimlarini bilim va ko‘nikmalarni oshirish. | Sog‘liqni saqlash muassasalarida 239 nafar foydalanuvchilarni shartnoma asosida bilim va ko‘nikmalarini oshirib borish.<br>Jumladan:<br>Nurafshon shahrida — 4 nafar;<br>Angren shahrida — 11nafar;<br>Bekobod shahrida — 10nafar;<br>Olmaliq shahrida — 10nafar;<br>Ohangaron shahrida — 2 nafar;<br>Chirchiq shahrida — 15nafar;<br>Yangiyo‘l shahrida — 2 nafar;<br>Bekobod tumanida — 12nafar;<br>Bo‘ka tumanida — 10nafar;<br>Bo‘stonliq tumanida — 14nafar;<br>Zangiota tumanida — 15 nafar;<br>Oqqo‘rg‘on tumanida — 12 nafar;<br>Ohangaron tumanida — 12nafar;<br>Parkent tumanida — 14nafar;<br>Piskent tumanida — 8 nafar;<br>Toshkent tumanida — 17nafar;<br>Qibray tumanida — 15nafar;<br>Quyi Chirchiq tumanida —<br>12 nafar;<br>O‘rta Chirchiq tumanida — 12nafar;<br>Chinoz tumanida — 10 nafar;<br>Yuqori Chirchiq tumanida —<br>10 nafar;<br>Yangiyo‘l tumanida — 12 nafar sog‘liqni saqlash muassasalari xodimlarini tizimdan foydalanishga o‘qitish. | 2022-yil dekabr | - | Sog‘liqni saqlash boshqarmasi,<br>Toshkent viloyati hokimligi,<br>IT-Park Toshkent viloyati filiali,<br>Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot universiteti Nurafshon filiali |
| **II.Raqamli infratuzilmani kengaytirish** | | | | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 6. | 2021-2022-yillarda tashkil etilgan infratuzilma obyektlariga optik tolali aloqa liniyalarini qurish | Yangi tashkil etilgan infratuzilma (umumta'lim maktab, maktabgacha ta'lim tashkiloti, sog'liqni saqlash muassasasi) obyektlariga qadar optik tolali aloqa liniyalarini qurish ishlari bajarish. | 2022-yil dekabr | Ijrochilar mablag'lari hisobidan | «O'zbektelekom» AK Toshkent filiali |
| 7. | Wi-Fi texnologiyasi yordamida jamoat joylarida va turizm ob'ektlarida simsiz keng polosali tarmoqlarni kengaytirish. | 1. Turizm boshqarmasi so'roviga asosan Angren shahri, Bo'stonliq, Parkent, Ohangaron tumanlarida simsiz Wi-Fi kirish nuqtalarini o'rnatish joylarini rejalashtirish.<br>2. Turizm obyektlariga Wi-Fi uskunalarni o'rnatish va ishga tushirish. | 2022-yil dekabr | Ijrochilar mablag'lari hisobidan | Turizm va sport bosh boshqarmasi, «O'zbektelekom» AK Toshkent filiali |
| **III. Iqtisodiyot tarmoqlarida axborot tizimlarini joriy etish** | | | | | |
| 8. | «O'zmetkombinat» AJ tizimida korxonani boshqarish tizimini joriy qilish. | 1. Loyiha-texnik hujjatlarni ishlab chiqish va o'rnatilgan tartibda tasdiqlash.<br>2. Axborot tizimni ishlab chiqaruvchi kompaniyani aniqlash bo'yicha tender (konkurs) o'tkazish.<br>3. Axborot tizimini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish. | 2022-yil dekabr | Ijrochi mablag'lari, bank kreditlari hisobidan | «O'zmetkombinat» AJ, Toshkent viloyati hokimligi |
| 9. | Agrosanoat majmuida «Raqamli qishloq xo'jaligi» yagona integratsiyalashgan platformani ishlab chiqish. | 1. «Raqamli qishloq xo'jaligi» yagona integratsiyalashgan platformasini yaratish konsepsiyasi, texnik iqtisodiy asoslari va texnik topshirig'ini ishlab chiqish.<br>2. Texnik loyiha hujjatlarini vakolatli davlat organlarida ekspertizadan o'tkazish.<br>3. «Raqamli qishloq xo'jaligi» yagona integratsiyalashgan platformani yaratish uchun Tender o'tkazish va g'olib topilgan kompaniya bilan shartnoma imzolash.<br>4. Axborot tizimini ishlab chiqish va joriy etish. | 2022-yil dekabr 2022-2023- yillar | Ijrochi mablag'lari, bank kreditlari hisobidan | Qishloq xo'jaligi boshqarmasi, Toshkent viloyati hokimligi |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 10. | «Agrosubsidiya» yagona axborot tizimini joriy qilish. | 1. Komissiya a’zolarini tizimga to‘liq ulanishini ta’minlash.<br>2. Tizimda barcha tegishli idoralar muntazam ishlashini tashkil etish. | 2022-yil sentabr doimiy | Ijrochi mablag‘lari hisobidan | Qishloq xo‘jaligi boshqarmasi,<br>Viloyat va tuman hokimliklari |
| **IV. IT-Park faoliyatini kengaytirish** | | | | | |
| 11. | Toshkent viloyatida IT-Park filialini tashkil etish. | 1. IT-Park hududiy filiali binosini qurish bo‘yicha loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish.<br>2. IT-Park hududiy filiali binosi qurilishini yakunlash va jihozlash ishlarini amalga oshirish. | 2023-yil fevral<br>2023-yil dekabr | Mahalliy budjet mablag‘lari hisobidan | Toshkent viloyati hokimligi,<br>Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi,<br>IT-Park |
| 12. | Toshkent viloyatida axborot kommunikatsiya-texnologiyalarini qo‘llash orqali masofaviy xizmatlarni ko‘rsatish va eksport (IT-autsorsing) markazlarini tashkil etish, jumladan:<br>2022-yilda 1 ta markaz;<br>2023-2026-yilgacha bosqichma-bosqich tumanlarda. | 1. «O‘zbektelekom» AK yoki «O‘zbekiston pochtasi» AJning tuman va shaharlardagi bo‘sh turgan binolarini ajratish. | 2022-yil oktabr | | Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi |
| | | 2. Ajratilgan binoni IT-Park tomonidan ishlab chiqilgan konsepsiya asosida ta’mirlash. | 2022-yil oktabr-noyabr | Mahalliy budjet va budjetdan tashqari mablag‘lar hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar | Toshkent viloyati hokimligi |
| | | 3. Zarur kompyuter texnikasi bilan ta’minlash hamda xarid qilingan jihozlarni beg‘araz asosda IT-parkka topshirish. | 2022-yil sentabr dekabr | Yoshlarga oid davlat siyosatini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi mablag‘lari | Yoshlar ishlari agentligi, |
| | | 4. Yoshlarni chet tillariga o‘qitish bo‘yicha zarur choralarni ko‘rish. | 2022-yil sentabr dekabr | - | Xorijiy tillar agentligi,<br>IT-Park |
| | | 5. Markazlarni tashkil etish. | 2022-2026- yillarda | Mahalliy budjet va budjetdan tashqari mablag‘lar hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar | Toshkent viloyati hokimligi,<br>Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi,<br>Yoshlar ishlari agentligi,<br>Xorijiy tillar agentligi<br>IT-Park |
| **V. Raqamli ta’limni rivojlantirish** | | | | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 13. | Hududdagi Oliy ta’lim muassasalarida IT-Park inkubatsiya markazlarini tashkil etish. | 1. Oliy ta’lim muassasalari IT-Park bilan hamkorlik memorandumini imzolash.<br>2. Inkubatsiya markazlarini tashkil etish maqsadida oliy ta’lim muassasalarida zarur maydonlarni ajratish.<br>3. Inkubatsiya markazlarini zamonaviy kompyuter texnikasi, zarur mebel va inventarlar bilan jihozlash.<br>4. Inkubatsiya markazlari faoliyatini yo‘lga qo‘yish maqsadida malakali mutaxassislarni jalb qilish.<br>5. Oliy ta’lim muassasalarida inkubatsiya va akseleratsiya dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish. | 2022-2024- yillarda | OTMning budjetdan tashqari mablag‘lari | Toshkent viloyati kasbiy ta’limni rivojlantirish va muvofiqlashtirish hududiy boshqarmasi,<br>Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot universiteti Nurafshon filiali,<br>Chirchiq davlat pedagogika universiteti,<br>Jismoniy tarbiya universiteti,<br>Toshkent Agrar universiteti,<br>Islom Karimov nomidagi texnika universiteti Olmaliq filiali,<br>IT-Park Toshkent viloyati filiali |

Toshkent viloyat hokimining
2022 yil 9 sentabrdagi
498-10-0-Q/22-son qaroriga
2-ilova

# Raqamli texnologiyalarni rivojlantirish doirasida Toshkent viloyatini raqamli transformatsiya qilish bo‘yicha loyihalarni amalga oshirilishini sifatli va o‘z vaqtida bajarilishini muvofiqlashtirish va monitoring qilish bo‘yicha viloyat

## ISHChI GURUH TARKIBI

| | | |
|---|---|---|
| FAYZIEV<br>Muzaffar Yusupalievich | - | Viloyat hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari,<br>*Ishchi guruhi rahbari* |
| lavozim bo‘yicha | - | Toshkent viloyati shahar va tuman hokimlari |
| XATAMOV<br>Iskandar Abdurazzaqovich | | Toshkent viloyati turizm va madaniy meros bosh boshqarmasi boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari |
| TEMIRPULATOV<br>Abduvali Abdug‘ani o‘g‘li | - | Toshkent viloyati hokimligi huzuridagi "Axborot kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish markazi" MChJ rahbari |
| YO‘LDOShEV<br>Xursan Xakimovich | - | Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligining Toshkent viloyati hududiy boshqarmasi boshlig‘i<br>(*ishchi gurux kotibi*) |
| TURGUNOV<br>Kamoliddin Abzalovich | - | “O‘zkomnazorat” Toshkent viloyati hududiy inspeksiyasi boshlig‘i (*kelishuv asosida*) |
| BAKIROV<br>Shavkat Saydmuratovich | | “O‘zbektelekom” AK Toshkent filiali direktori |
| PIRNAZAROV<br>Sarvar Toirovich | - | “IT-Park” Toshkent viloyati filiali rahbari |
| XALIQULOV<br>Olimjon Axmedovich | - | Toshkent viloyati Moliya bosh boshqarmasi boshlig‘i |
| KAMALOV<br>Azamat Jamalovich | | Toshkent viloyati Xalq ta’limi boshqarmasi boshlig‘i |
| BEGMATOV<br>Baxtiyor Paxriddinovich | - | Mahalla va nuroniylarni qo‘llab quvvatlash boshqarmasi boshlig‘i |
| BARATOVA<br>Sayyora Raxmatovna | | Maktabgacha ta’lim boshqarmasi boshlig‘i |
| ARZIKULOV<br>To‘raqul Sodiqovich | | Sog‘liqni saqlash boshqarmasi boshlig‘i |
| ShOQOSIMOV Sadriddin<br>Shoqosimovich | | Transport boshqarmasi boshlig‘i |
| JO‘RAEV<br>Baxtiyor Muqimovich | | Viloyat ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish boshqarmasi boshlig‘i |

| | | |
|---|---|---|
| UBAYDULLAEV<br>Sardor Sagdullaevich | | Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish boshqarmasi boshlig‘i |
| ABDULLAEV<br>Amirulla Xazratovich | | “ASTRUM” IT akademiya direktori |
| MUHAMMEDOV Gafurdjan<br>Israilovich | | Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti rektori |
| ISLAMOV<br>Sohib Yaxshibekovich | | Toshkent davlat agrar universiteti prorektori |
| BOLTABAEV<br>Mahmudjon Rustamovich | | O‘zbekiston Davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti rektori |
| NASRULLAEV<br>Nurbek Baxtiyorovich | | Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Nurafshon filiali direktori v.b |
| SAMADOV<br>Alisher Usmanovich | | Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali direktori |
| MIRSULTONOV Miraziz<br>Baxrom o‘g‘li | | O‘zbekiston Yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmasi boshlig‘i |
| PO‘LATOV<br>Elmurod To‘xtaboevich | | Viloyat qurilish bosh boshqarmasi boshlig‘i |
| AXRОROV<br>Jasur Davlatboevich | | O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi xuzuridagi Kadastr Agentligi davlat kadastrlari palatasi Toshkent viloyati boshqarmasi boshlig‘i |

***Izoh:*** ishchi guruh tarkibidagilar boshqa ishga o‘tgan taqdirda ushbu lavozimga tayinlangan shaxs ishchi guruh a’zoligiga kiritilishi belgilab qo‘yilsin.